

## **“Oila uchun” aksiyasini taqdim etish shartlari**

1. Ushbu Shartlar “10 karra arzon!” xizmati reklama aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – “Xizmat”) o‘tkazish tartibini belgilaydi.
2. Promo-aksiyani o‘tkazish muddati – 2019 yilning 1 sentabridan 30 sentabriga (jumladan, shu kun ham) qadar. Promo-aksiyaning amal qilish hududi – O‘zbekiston Respublikasi, “UzMobile” filiali GSM standart tarmog‘i.
3. Reklama aksiyasini o‘tkazish davrida “Oila uchun” xizmatiga quyidagi tariflar belgilanadi:

Nomi	Narxi, so‘m
Xizmatning abonent to‘lovi, oyiga	<b>2100</b> 210
Faollashtirish	420
O‘chirish	0,00

4. “Oila uchun” xizmati GSM standartidagi jismoni shaxs abonentlar uchun amal qiladi.
  5. Xizmat faollashtirilganda guruh ichidagi barcha chiqish qo‘ng‘iroqlari 0 so‘mni tashkil etadi. Guruh sifatida bir shartnomaga rasmiylashtirilgan barcha raqamlar hisoblanadi.
  6. Raqam, tarif rejasiga o‘zgartirilganda xizmatni taqdim etish shartlari o‘zgarmaydi.
  7. Xizmatdan foydalanishda tarif rejasiga yoki to‘plamga kiritilgan ovozli trafik/limitlar narxlanmaydi.
  8. Xizmatni yoqish/o‘chirish USSD-so‘rov orqali, “Shaxsiy kabinet” yordamida, kompaniya ofislari, shuningdek Abonentlarni qo‘llab-quvvatlash xizmati orqali mavjud.
  9. Xizmat uchun abonent to‘lovi abonentning faol holatida amalga oshiriladi. Agarda abonent hisobida yetarli mablag‘i mavjud bo‘lmagani sabab bloklangan bo‘lsa, to‘lov amalga oshirilmagunga qadar abonent to‘lovi yechib olinmaydi.
  10. Xizmat uchun abonent to‘lovi yangi kalendar oyining birinchi kunida yechib olinadi. Agarda oyning boshida abonent raqami “bloklangan” holatda bo‘lsa, yangi oy uchun abonent to‘lovi yechib olinmaydi. Agarda abonent xizmatni hisobot oyi davomida faollashtirsa (to‘lovni amalga oshirish yo‘li bilan), abonent to‘lovi xizmat yoqilgan sanadan boshlab oyning oxirgi kuniga qadar mutanosib ravishda yechib olinadi.
1. USSD-menu orqali xizmatni boshqarish \*111#
  - Faollashtirish: o‘zbek tili uchun menu \*111\*1\*17\*1\*1#; rus tili uchun menu \*111\*2\*17\*1\*1#

- O‘chirish: o‘zbek tili uchun menuy \*111\*1\*17\*1\*2#; rus tili uchun menuy \*111\*2\*17\*1\*2;
2. Aksiyaning boshlanishi va uning shartlari to‘g‘risida xabardor qilish “UzMobile” filiali tomonidan tegishli ma’lumotlarni bevosita Internet tarmog‘ida rasmiy [www.uztelecom.uz](http://www.uztelecom.uz) saytida va boshqa aloqa vositalariga joylashtirish orqali amalga oshiriladi.
  3. “O‘zbektelekom” AK Aksiya shartlariga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega bo‘lib, bunda tegishli ma’lumotlarni rasmiy [www.uztelecom.uz](http://www.uztelecom.uz) saytida joylashtirgan holda yoki boshqa aloqa vositalari orqali, misol uchun, SMS-xabarlarni yuborish bilan xabardor qilishi lozim. Ishtirokchilar mustaqil ravishda tegishli o‘zgartirishlarni yuqorida ko‘rsatilgan sayt orqali tekshirishlari shart.